


## Xorazm viloyatida 2017-yil yanvar-sentyabr oylarida sanoat ishlab chiqarishning rivojlanishi

Mamlakatimizda 2017-yil ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlarini amalga oshirilishi bilan bir qatorda sanoat sohasida ham Davlatimiz tomonidan mavjud korxonalar quvvatlarini texnik va texnologik jihatdan yangilash, kichik biznes sub'ektlarini qo'llab-quvvatlash, yangidan tashkil etilayotgan korxonalarga imtiyozlar yaratib berish natijasida Xorazm viloyatida 2017-yilning yanvar-sentyabr oylarida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 2672,6 mlrd.so'mni tashkil etib o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 124,0 foizni tashkil qildi.

### Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish tarkibi yanvar-sentyabr holatiga (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmiga nisbatan foizda)




- Ishlab chiqaradigan sanoat
- Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash
- Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish
- Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash


Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibi ko'proq qayta ishlash sanoatiga to'g'ri kelib, uning ulushi 92,8 foizni tashkil etdi (2016-yilning yanvar-sentyabr oylariga nisbatan o'sish sur'ati 124,8 foiz). Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash ulushi 0,02 foizni (o'sish sur'ati 105,3 foiz), elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash ulushi 6,5 foizni (o'sish sur'ati 115,7 foiz), suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish ulushi 0,68 foizni (o'sish sur'ati 105,4 foiz) tashkil qiladi.

Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida o'sish darajasi yuqori bo'lgan Xazorasp tumani (2016-yil yanvar-sentyabr oylariga nisbatan 171,4 foiz), Xonqa tumani (116,6 foiz), Yangibozor tumani (115,4 foiz), Urganch shahri (114,6 foiz), Bog'ot tumani (113,3 foiz)ga, o'sganini ko'rish mumkin.

**2017-yil yanvar-sentyabr oylarida shahar va tumanlar kesimida sanoat ishlab chiqarish o'sish sur'atlari (o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan foizda)**




**2017-yil yanvar-sentyabr oylarida shahar va tumanlar kesimida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi to'g'risida (mlrd. so'mda)**



Jami sanoat ishlab chiqarish hajmida yuqori bo'lgan Xazorasp tumani, Urganch shahri, Xonqa va Bog'ot tumanlari xissasiga to'g'ri keladi.

**2017-yil yanvar-sentyabr oylarida shahar va tumanlar kesimida viloyat jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi (% da)**




Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida ulushi yuqori bo'lgan Xazorasp tumani 33,3 foiz, Urganch shahri 28,8 foiz, Xonqa 7,7 foiz, Bog'ot 6,9 foiz, va Shovot tumani 4,5 foizni tashkil qiladi.

**2017-yil yanvar-sentyabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat mahsulotini ishlab chiqarish.**

<b>Iqtisodiy faoliyat turlari</b>	<b>mlrd.so'm</b>	<b>O'sish sur'ati, foiz hisobida</b>
<b>Iqtisodiy faoliyatning alohida turlari bo'yicha sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi</b>	<b>2672,6</b>	<b>124,0</b>
<b>Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash</b>	<b>0,4</b>	<b>105,3</b>
<i>ulardan:</i>		
Tog'-kon sanoatiga bog'liq boshqa faoliyat	0,4	105,3
<b>Qayta ishlash faoliyati</b>	<b>2480,3</b>	<b>124,8</b>
<i>undan:</i>		
Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish	681,8	103,9
Ichimliklar, tamaki mahsulotlari ishlab chiqarish	132,1	165,0
To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish	475,0	121,7
Kiyim ishlab chiqarish	54,0	79,0
Teri va unga tegishli mahsulotlar ishlab chiqarish	3,2	99,5

<b>Iqtisodiy faoliyat turlari</b>	<i>mlrd.so'm</i>	<i>O'sish sur'ati, foiz hisobida</i>
Yog'och va po'kak buyumlar, pohl va to'qish uchun materilallari, ishlab chiqarish	9,6	136,7
Qog'oz va qog'oz mahsulotlarini ishlab chiqarish	3,1	138,7
Yozilgan materiallarni nashr qilish va aks ettirish	3,7	120,5
Neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish	0,0	0,0
Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish	10,6	112,4
Asosiy farmasevtika	12,0	109,1
Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish	35,5	111,0
Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish	115,8	101,0
Metallurgiya sanoati	0,1	109,5
Mashina va uskunalaridan tashqari tayyor buyumlar ishlab chiqarish	53,8	111,4
Kompyuter va elektron optikali mahsulotlar ishlab chiqarish	0,1	109,5
Elektr uskunalar ishlab chiqarish	18,4	108,8
Boshqa toifalarga kiritilmagan mashina va uskunalar ishlab chiqarish	42,2	103,7
Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim pritseplar ishlab chiqarish	706,1	212,3
Mebel ishlab chiqarish	11,5	109,7
Boshqa tayyor buyumlar ishlab chiqarish	99,4	103,1
Mashina va uskunalarni ta'mirlash va o'rnatish hamda tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish	12,4	108,9
<b>Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash</b>	<b>174,0</b>	<b>115,7</b>
<b>Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish</b>	<b>17,8</b>	<b>105,4</b>
<b>Iste'mol tovarlarini ishlab chiqarish</b>	<b>1646,7</b>	<b>124,1</b>
<i>shu jumladan:</i>		
oziq-ovqat tovarlari	610,0	117,3
nooziq-ovqat tovarlari	1014,3	129,0


**2017-yil yanvar-sentyabr oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish.**  
(mlrd. so'm)




Viloyatda 1646,7 mlrd. so'mlik xalq iste'mol tovarlari ishlab chiqarilib, 2016-yil yanvar-sentyabr oylariga nisbatan 124,1 foizni tashkil etdi. Shahar va tumanlarda 610,0 mlrd.so'mlik oziq-ovqat mahsulotlari, 1014,3 mlrd.so'mlik nooziq-ovqat mollari (2016-yil yanvar-sentyabr oylariga nisbatan mos ravishda 117,3 foiz va 129,0 foiz) ishlab chiqarildi.

**Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish tarkibi**  
(jami iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmiga nisbatan foizda)

**2016 yil yanvar-sentyabr**




**2017 yil yanvar-sentyabr**




- Nooziq-ovqat mahsulotlari
- Oziq-ovqat mahsulotlari


**2017-yil yanvar-sentyabr oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish.  
(foizda)**



**2017-yil yanvar-sentyabr oylarida shahar va tumanlar kesimida aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi. (ming so'mda)**



**2017-yil yanvar-sentyabr oylarida shahar va tumanlar kesimida aholi jon boshiga iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi. (ming so'mda)**



**Xorazm viloyati statistika boshqarmasi**  
**“Sanoat statistikasi” bo’limi**  
**Nashr uchun ma’sul: K.Kuryazov**  
**Aloqa telefoni (0362) 224-64-99**